

**“YANGI O'ZBEKISTON KONSTITUTSIYASIDA SHAXS VA DAVLAT
MANFAATLARINING USTUVORLIGI MASALALARI”****Tojiboyeva Laylo Ulug'bek qizi***Xorazm viloyati yuridik texnikumi 2-bosqich o'quvchisi**laylolaylo584@gmail.com**Tel: +998900780385***Karimova Dilrabo Shonazar qizi***Xorazm viloyati yuridik texnikumi 2-bosqich o'quvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada'' Yangi O'zbekiston Konstitutsiyasida shaxs va Davlat manfaatlarining ustuvorligi'' tamoyili yoritilgan. Yangi O'zbekiston Konstitutsiyasining asosi tizimli tahlil qilingan. Davlatning ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashdagi mas'uliyatini oshirishga qaratilgan yondashuvlar yoritilgan. Nazariy yondashuv bilan bir qatorda, kelgusidagi islohotlar uchun metodologik yo'nalishlar ham ko'rsatib berilgan. Yangi Konstitutsiyaning demokratik rivojlanishga qo'shadigan hissasi aniqlangan. Davlatning fuqarolarga nisbatan mas'uliyatini oshirish va inson huquqlarini kafolatlash borasidagi yangi normalar havola etilgan. Tadqiqot natijasida Konstitutsiyaning ijro mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha xulosa va tavsiyalar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *inson huquqlari, ijtimoiy adolat, qonun ustuvorligi, barqarorlik, himoya va xavfsizlik, ijtimoiy hamkorlik, davlat manfaatlari, jamiyat va davlat, shaxsiy erkinlik.*

Аннотация: *В данной статье поясняется принцип приоритета индивидуальных и государственных интересов в новой Конституции Узбекистана. Определен вклад новой Конституции в демократическое развитие. Представлены новые нормы относительно гарантий. В результате исследования представлены выводы и рекомендации по совершенствованию механизмов исполнения Конституции.*

Ключевые слова: *Права человека, социальная справедливость, верховенство закона, стабильность защита и безопасность, социальное сотрудничество, государственные интересы, общество и государство свобода личности.*

O'zbekiston xalqi oliy irodasining Benazir timsoli, suveren davlatchiligimizning huquqiy ramzi, fuqarolar haq-huquqlarining ishonchli kafolati bo'lmish Konstitutsiyamiz qabul qilinganligiga o'ttiz ikki yil to'ldi. Konstitutsiya mamlakatimizning butun hududida oliy yuridik kuchga ega bo'lib yagona huquqiy makonning asosini tashkil etadi. Umummajburiy nuqtai nazardan Konstitutsiyaning ahamiyatiga baho beriladigan bo'lsa, u nafaqat alohida davlat uchun beqiyos qadrlı hujjat, balki dunyoviy miqiyosda, butun insoniyat taraqqiyoti uchun jiddiy etiborga molik qadriyatdir. Konstitutsiya har bir davlatning huquqiy asosi va siyosiy hayotining bosh mezonı hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyada inson va jamiyat manfaatlarining ustuvorligi tamoyillari yoritilgan. Konstitutsiyamizning asl ma’no-mazmuni, tub mohiyati, asosiy tamoyillari va barcha hususiyatlarini jamiyatimiz azolari keng axoli qatlamlari etiboriga yetkazishga, fuqarolarning huquqiy madaniyati va bilimlarini, shuningdek konstitutsiyaviy-huquqiy savodxonligini oshirishga katta hissa qo‘shishga qaratilgan. 2023-yil 30-apreldagi referendumda qabul qilingan” O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to‘g‘risida”gi qonuni 1-maydan kuchga kirdi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya 6 bo‘lim 27 bob 155 moddadan iborat. Mazkur Konstitutsiyada shaxs manfaatlari va davlat manfaatlarining ustuvorligini ta’minlashga alohida e’tibor qaratilgan. Bu Konstitutsiyaning xalqchil tamoyillar asosida yaratilganini va mamlakatda inson huquq va erkinliklari eng yuqori qadriyat ekanini anglatadi. 2023-yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga bir qancha muhim o‘zgarish va qo‘shimchalar kiritildi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va unga asoslangan bir qator qonunlar shaxs va davlat manfaatlarining ustuvor masalaarini mustahkamlash va ta’minlashga qaratilgan. Bu qonunlar shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish, ijtimoiy barqarorlikni saqlash, iqtisodiy erkinlik, ta’lim va sog‘liqni saqlash kabi sohalarni tartibga soladi.

Yangi qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatdagi asosiy qonun hujjat bo‘lib unda davlat va shaxsning o‘zaro majburiyatlari, har bir fuqaroning huquq va erkinliklari belgilangan. Konstitutsiya davlatga inson huquqlarini himoya qilish majburiyatini yuklaydi. Misol tariqasida, Konstitutsiyaning 13-moddasi “Inson va uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmat va boshqa ajralmas huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi” deb belgilangan. Binobarin, 1996-yil 29-avgustda 265-I-sonli” Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida”gi qonun qabul qilingan. Bu qonun sog‘liqni saqlash tizimini tartibga soladi va davlat tomonidan fuqarolarning sog‘ligini muhofaza qilish borasidagi majburiyatlarini belgilaydi. Shaxsning sog‘lom hayot kechirish huquqi davlat tomonidan ta’minlanishi kerak.

Bundan tashqari 2020-yil 23-sentyabrda O‘RQ-637-Sonli “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun qabul qilingan. Ushbu qonun har bir fuqaroning ta’lim olish huquqini belgilaydi va davlat tomonidan ta’lim olish imkoniyatlarini ta’minlash masalalarini o‘z ichiga oladi. Ta’lim olish shaxs manfaatini ifodalaydi, bu esa jamiyat rivoji va davlat barqarorligiga hissa qo‘shadi. 2020-yil 15-oktabrda O‘RQ-641-sonli “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi qonun qabul qilingan. Nogironlar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan ushbu qonun davlat tomonidan ijtimoiy himoya va teng imkoniyatlarni yaratish majburiyatlarini o‘z ichiga oladi. 2023-yil 7-noyabrda yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni tasdiqlandi. Yurtimizda 2023-yil 30-aprel kuni o‘tkazilgan referendumda yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinishi orqali yangi O‘zbekiston strategiyasini amalga oshirishning siyosiy huquqiy asoslari yaratilib, milliy davlatchilik taraqqiyotining tarixiy muhim bosqichida davlat va

jamiyatni yanada rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari belgilab berildi. Yangi O'zbekiston Konstitutsiyasida shaxs va davlat manfaatlarining ustuvorligi tamoyili asosida shakllantirilgan qonun hujjatlarining asosiy jihatlari quyidagilardan iborat:

Inson huquqlarini himoya qilish, ijtimoiy himoya tizimini barqarorlashtirish, adolat va qonun oldida tenglikni kafolatlash, ta'lim va sog'liqni saqlash huquqini mustahkamlash va iqtisodiy erkinlik bilan birgalikda tadbirkorlikni qo'llab quvvatlash. Inson huquqlari, va sha'ni masalalarida Konstitutsiyada shaxsning manfaatlarini himoya qiluvchi yangi kafolatlar kuchaytirildi. Bu davlat va shaxs o'rtasidagi ishonchni mustahkamlaydi, chunki davlatning asosiy maqsadi endi fuqarolarning xavfsizligi va faravonligini ta'minlashga yo'naltirilgan. Ijtimoiy himoya va adolat prinsiplari kuchaytirilib, har bir fuqaroning asosiy ehtiyojlarini ta'minlash majburiyati yanada aniq belgilandi. Bu davlat va shaxs o'rtasidagi o'zaro manfaatlarini uyg'unlashtiradi, chunki ijtimoiy himoya kuchaysa shaxs o'zini xavfsiz his qiladi. Har bir fuqaroning sog'lom atrof muhitida yashash huquqi Konstitutsiyada aniq belgilangan. Bu jihat davlatni ekologik xavfsizligini ta'minlashga majbur qiladi, bu esa nafaqat shaxs, balki butun jamiyat manfaatiga xizmat qiladi. Davlat va shaxsning uzoq muddatli manfaatlarini uyg'unlashadi, chunki ekologik barqarorlik sog'lom avlod tabiatini saqlash uchun zarur. Ta'lim olish huquqi va davlatning fanni rivojlantirish bo'yicha majburiyatlari kengaytirildi. Bu esa har bir shaxsga o'z imkoniyatlarini to'la amalga oshirishda yordam beradi va davlatning ma'naviy, intellektual rivojlanishiga xizmat qiladi. Ya'ni ta'lim orqali shaxs va davlat manfaatlarini mustahkamlanadi. Prezident va boshqa ijro hokimiyati vakolatlarining chegaralarni aniqlash orqali davlat boshqaruvi tizimining shaffofligi va fuqarolar oldidagi mas'uliyatini oshiradi. Yuqoridagi o'zgartirishlar davlat va shaxs o'rtasida ijtimoiy shartnoma sifatida qaralishi mumkin, unda davlatning asosiy vazifalari fuqarolar manfaatlarini himoya qilish va ularning faravonligini ta'minlashga yo'naltirilgan. Bu har bir fuqaroning manfaati uchun, balki davlatning barqaror rivojlanishi va jamiyat faravonligi uchun ham muhim ahamiyatga ega. Shaxs va davlatning birgalikdagi rivoji O'zbekistonning demokratik, huquqiy va ijtimoiy davlat sifatidagi nufuzini mustahkamlaydi. Yangi O'zbekiston Konstitutsiyasi doirasida shaxs va davlat manfaatlarining o'zaro bog'liqligi va huquqiy asoslarini yanada mustahkamlash uchun quyidagi takliflarni kiritish mumkin.

1. Huquqiy ma'lumotni keng ommaga yetkazish.

Taklif: Konstitutsiya va unga asoslangan qonunlar haqida fuqarolar, ayniqsa, yoshlar o'rtasida tushuntirish ishlari olib borilishini yanada kuchaytirish zarur. Bu orqali aholi o'z huquq va majburiyatlarini yaxshi bilib oladi va huquqiy madaniyati oshadi.

Ijrosi: ta'lim muassasalarida huquqiy ta'lim kurslarini kengaytirish, ommaviy axborot vositalari orqali huquqiy bilimlarni yetkazish, interaktiv tadbirlar va onlayn seminarlarni tashkil qilish.

2. Fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga qo'chimcha ko'mak berish.

Taklif: nodavlat notijorat tashkilotlari, jamoat birlashmalari va ommaviy axborot vositalarining rivojlanishi uchun qulay huquqiy sharoitlarni kengaytirish. Bu shaxs manfaatlarini himoya qilishda ularning ro'li va ishtirokini kuchaytiradi.

Ijrosi: nodavlat tashkilotlarga huquqiy ko'mak ko'rsatish va ularga davlat tomonidan qo'llab-quvvatlovchi dasturlarni yaratish.

3. Ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish.

Taklif: ehtiyojmand va kam ta'minlangan qatlamlarni, shuningdek, yoshlarni qo'llab quvvatlash uchun davlat tomonidan ijtimoiy dasturlarni kengaytirish va ijtimoiy nafaqa tizimini yanada adolatli shaklda olib borish.

Ijrosi: davlat byudjetida ijtimoiy himoya harajatlarini oshirish, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimida imtiyozlar, shuningdek subsidiyalar joriy qilish.

4. Xalqaro hamkorlikni mustahkamlash.

Taklif: yangi Konstitutsiyaga muvofiq xalqaro huquqiy me'yorlarga asoslanib, inson huquqlari va huquqiy davlat qurish borasida xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kuchaytirish.

Ijrosi: O'zbekistonni xalqaro huquqiy konvensiyalar va xalqaro huquqiy standartlarga yanada yaqinlashtirish, xalqaro tajribani o'rganish va uni amaliyotga tatbiq qilish.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, shaxs va davlat manfaatlarining o'zaro bog'liqligini ta'minlash yangi O'zbekistonning rivojlanish strategiyasining asosiy tamoyili hisblanadi. Konstitutsiyada belgilangan prinsiplar shuni ko'rsatadiki, davlat siyosatini inson manfaatlarini markazga qo'ygan holda amalga oshirsa, bu jamiyatdagi barqarorlik va taraqqiyotning asosiy kafolati bo'lib xizmat qiladi. Ushbu masala bo'yicha munozaralar davlat boshqaruvining samaradorligini oshirish va shaxsning erkinligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi shaxs va davlatning huquqiy holatini belgilashda inson huquqlari ustuvorligi, davlat bilan fuqaroning o'zaro siyosiy-huquqiy aloqadorligi hamda mas'ulligi prinsiplariga asoslanuvchi tamomila yangi konsepsiyaga tayanadi. O'tgan mustaqil taraqqiyot yiliga nazar tashlasak, har bir O'zbekiston fuqarosi o'z kuchiga aql-zakovatiga, milliy urf-odatlarini, an'analari va qadriyatlariga tayangan holda erishgan yutuqlari Konstitutsiyaning roli, ahamiyati katta ekanligining guvohi bo'lamiz. Konstitutsiya inson va davlatning o'zaro munosabatlari ko'lamini, eng muhimi, insonning fundamental huquq va erkinliklariga oliy yuridik maqom baxsh etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.

2. O'zbekiston Respublikasi 1996-yil 29-avgustdagi 265-I-son "Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida"gi qonun.

3. O'zbekiston Respublikasi 2020-yil 23-sentyabrdagi 637-son "Ta'lim to'g'risida"gi qonun.

4. O'zbekiston Respublikasi 2020-yil 15-oktabrdagi 641-son "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi qonun.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 7-noyabrdagi "Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston

Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida'gi farmoni.

6.Frunzeva, M. Z., & Odilbekovna, R. N. (2024). TIL O'RGANISHDA O'YINLASHTIRISH VA BOSHQA INNOVATSION YONDASHUVLAR. MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS, 9(9), 11-13.

7.Матниязова, Ф. Ф., & Мадрахимова, З. Ф. (2024). ТЕХНОЛОГИЯ ПРИМЕНЕНИЯ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ. THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLD, 4(1), 116-118.

8.Мадрахимова, З. Ф., Баркулиева, Л. Р., & Юсупова, М. К. (2024). СОВРЕМЕННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ В ФОРМИРОВАНИИ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ: ВАЖНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТЕХНОЛОГИЙ. YANGI O 'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI, 1(3), 165-169.

9.Мадрахимова, З. Ф. (2024). Литературные Загадки В Детской Поэзии: Описание, История Создания. Journal of Innovation in Education and Social Research, 2(1), 166-171.

10.Мадрахимова, З. Ф. (2023). ОБРАЗОВАНИЕ СЛОВ ОТ ТЮРКСКИХ ОСНОВ С ПОМОЩЬЮ РУССКИХ СЛОВООБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ЭЛЕМЕНТОВ. Innovative Development in Educational Activities, 2(9), 142-145.

11.Мадрахимова, З. Ф. (2023). ЕСЛИ НЕ ЖИТЬ СОВРЕМЕННОСТЬЮ-НЕЛЬЗЯ ПИСАТЬ. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(16), 570-572.

12.Аблаева, Н. К. (2024). ПРОБЛЕМЫ ИЗУЧЕНИЯ ЛИТЕРАТУРЫ В СОВРЕМЕННОЙ ШКОЛЕ. INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY, 2(5), 152-156.

13.Аблаева, Н. К. (2024). РОЛЬ ПРИРОДЫ В ДРАМЕ ОСТРОВСКОГО «ГРОЗА». MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS, 8(8), 176-181.

14.Аблаева, Н. К. (2024). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ФОЛЬКЛОРНЫХ ЭЛЕМЕНТОВ В БАЛЛАДЕ В. ЖУКОВСКОГО «СВЕТЛАНА». YANGI O 'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI, 1(3), 129-132.

15.Аблаева, Н., & Джуманиязова, И. (2024). ВОЗМОЖНОСТИ КОРПУСНОЙ ЛИНГВИСТИКИ В ИЗУЧЕНИИ РУССКОГО СЛОВООБРАЗОВАНИЯ. «CONTEMPORARY TECHNOLOGIES OF COMPUTATIONAL LINGUISTICS», 2(22.04), 520-524.

16.Аблаева, Н. К. (2024). НРАВСТВЕННО-ФИЛОСОФСКАЯ ПРОБЛЕМА В ТВОРЧЕСТВЕ ЛН Толстого (на примере романа " Война и мир"). JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCH, MODERN VIEWS AND INNOVATIONS, 1(1), 24-27.

17.Isamutdinova, D. (2024). COMPARISONS AS REFLECTIONS OF HUMAN CULTURE AND THOUGHT. Innovations in Technology and Science Education, 3(20), 194-198.

18.Isamutdinova, D. (2024, October). MILLIY TARIX VA MADANIYATNI AKS ETTIRUVCHISI SIFATIDA O‘XSHATISHLAR. In INTERNATIONAL CONFERENCE ON MODERN DEVELOPMENT OF PEDAGOGY AND LINGUISTICS (Vol. 1, No. 9, pp. 38-41).

19.Suyarov, A. (2023). INNOVATSION USULLAR–TALABALARNING TA’LIM VA KOGNITIV FAOLIYATINI TASHKIL ETTIRISHNING YANGI TARZI. Philological issues are in the eyes of young researchers, 1(1).

20.Suyarov, A., & Axmadov, H. TOG JINSLARI VA ULARNING FIZIKAVIY-MEXANIKAVIY XOSSALARI. TOIIKEHT-2021, 28.